

Филиал МГУ им. М.В. Ломоносова в Ташкенте, Ташкентский филиал Российского государственного университета нефти и газа им. Губкина, Ташкентский филиал Российского государственного экономического университета им. Плеханова, Ташкентский областной филиал Астраханского технического университета, Российский государственный университет физкультуры, спорта, молодежи и туризма в Самарканде, Алмалыкский филиал Московского института стали и сплавов), корейских вузов (Технический институт Ёджу в Ташкенте, Университет Инха в Ташкенте, Университет Пучон в Ташкенте, Университет Аджу в Ташкенте, Корейский международный университет в Фергане), Вебстерский университет в Ташкенте (США), Филиал университета Амита и Университет Шарджа в Андижане(Индия, частные вузы); Сингапурский институт развития менеджмента в Ташкенте; Международный Вестминстерский университет в Ташкенте; Туринский политехнический университет в Ташкенте; Совместный Белорусско-Узбекский междотраслевой институт прикладных технических квалификаций; Ферганский филиал Латвийской высшей школы менеджмента информационных систем.

Помимо указанных выше зарубежных вузов в большинстве вузов Узбекистане действуют совместные образовательные программы с иностранными вузами, позволяющие выпускникам получить двойной диплом, признающийся как в нашей стране, так и в стране, предлагающей совместную программу обучения.

Таким образом, в рамках интеграционных процессов в сфере образования в республике ведется планомерная работа по повышению качества подготовки высококвалифицированных кадров, создания всех условий для повышения уровня охвата высшим образованием, подготовки высококвалифицированных, креативно и системно мыслящих кадров на основе международных стандартов, способных самостоятельно принимать решения для реализации их интеллектуальных способностей и формирования в качестве духовно развитой личности.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" от 8 октября 2019 г. <https://lex.uz/ru/docs/4545887>
2. https://pedagogical_dictionary.academic.ru/773
3. Бухтеева Е.Е. Тенденции глобализации в образовании//Ж. "Наука. Образование. Технологии", №1, 2013. – С.38-42
4. Иванова В. И. Политика государства в сфере образования в условиях интеграционных процессов в современном мир // Известия ТулГУ. Гуманитарные науки. 2011. №2.
5. Кичева И.В. Обогащение педагогической терминологии в 90-е годы XX века. - Пятигорск, 2004. С. 282-283
6. Королева Л.В., Королев М.Ю., Петрова Е.Б. Об интеграционных процессах в образовании // Наука и школа. 2009. №5.
7. Рудакова Елена Николаевна Интеграционные процессы в сфере образования как закономерность развития современного мира // Вестник ГУУ. 2013. №6.
8. Троицкий Е.Ф., Юн С.М. Узбекистан: новый этап интернационализации высшего образования // Высшее образование в России. 2021. №10.

Feruza KODIROVA,

*Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti,
pedagogika fanlari doktori, dotsent,
Toshkent, O'zbekiston*

Muxayyo UMARALIEVA,

*Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti,
PhD, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Toshkent, O'zbekiston*

OILADA NOGIRON FARZANDLAR UCHUN TO'LAQONLI HAYOT TARZINI YARATISHDA OTA- ONALAR VA MAHALLA MUTASADDILARINING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Maqola nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, mualliflar mahalla mutasaddilari va nogironligi bo'lgan bolalar ota-onalarini malakasini oshirish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berishgan.

Kalit so'zlar. Nogironligi bo'lgan bolalar, ijtimoiy-madaniy muhit, oila, maktab, mahalla hamkorligi, "Kaskad texnologiyasi", umummadaniy kasbiy bilim, ko'nikma va malaka.

Статья посвящена вопросам развития знаний, умений и навыков родителей и должностных лиц махаллей в целях создания полноценного образа жизни для детей с ограниченными возможностями здоровья, авторы также высказали свое мнение по вопросам повышения квалификации должностных лиц махаллей и родителей детей с инвалидностью.

Ключевые слова. Дети с ОВЗ, социокультурная среда, семья, школа, сотрудничество по соседству, "каскадные технологии", общекультурные знания, умения и навыки.

The article is devoted to the development of knowledge, skills and abilities of parents and officials of mahallas in order to create a full-fledged lifestyle for children with disabilities, the authors also expressed their opinion on the issues of professional development of officials of mahallas and parents of children with disabilities.

Key words. Children with disabilities, socio-cultural environment, family, school, neighborhood cooperation, "cascade technologies", general cultural knowledge, skills and abilities.

Мamlakatimiz mustaqilligi yillarida nogironligi bo'lgan shaxslar, shu jumladan, bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ushbu muammo bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 39-sonli bayoni hamda 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat

tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son farmoni, 2021-yil 4-oktyabrda "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorolari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida "Harakatlar strategiyasidan –Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishlar bo'yicha Davlat dasturining 4-yo'nalishi 66-maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada nafaqat ota-onalar, ta'lim muassasalari balki oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimi mutasaddilari oldiga ham muhim vazifalar qo'yilgan. Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlar tizimini qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar rejasining 72-bandida belgilab berilgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish" masalasining ijrochisini ta'minlash "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlarga davlat qo'mitasi tomonidan 2022-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'yicha "YO'L XARITASI" ning 3-yo'nalishi 47-bandida ham belgilab berilganligi ushbu muammoning davlat tomonidan hal etishning o'ta dolzarbligidan dalolat beradi. Shuning uchun, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish davr talabidir.

Nogironligi bo'lgan bolalarning tug'ilishi nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo miqyosida kuzatiladigan muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo o'z yechimini topishi uchun butun dunyo mutasaddilarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu borada O'zbekistonning doimiy yo'li nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat ko'magi bilan qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama yordam ko'rsatishdan iborat. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan turli qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Xususan, joriy yilning 1-apreldan boshlab mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi hamda ish staji to'liq bo'lmagan vaqtdagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori oshirilgani ham ahamiyatga molikdir. E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ma'lumotlardan yana biri shuki, o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda beriladigan nafaqa to'lovi joriy etildi. Bu va boshqa qarorlar va ularning berayotgan ijobiy natijalari kishini quvontiradi.

Ammo masala bu bilan hal bo'lib qolmaydi. Farzandlarida jismonan nogiron bo'lgan ota-onalar ularga ta'lim berish masalasida qiynalishadi. To'g'ri, yurtimizda 80 dan ortiq nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ixtisoslashgan maktab va maktab-internatlar mavjud. Shuningdek, maktablarga bora olmaydigan 13 mingdan ortiq bolalar uyda ta'lim olishmoqda. Ularning ta'lim olish sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu boradagi muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorda Xalq ta'limi vazirligi 2022-yil yakuniga qadar:

– o'quv materiallarining audiokitoblari va audiotasmalarini yozib olish, Brayl yo-

zuvidagi kitoblarni tayyorlash hamda ta'lim muassalariga yetkazib berish tadbirlarini amalga oshirish;

– alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ota-onasi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularga yetkazib berilishini ta'minlanishi aytilgan.

Shu o'rinda yuqorida qarorning ikkinchi bandiga e'tibor beradigan bo'lsak, ota-onalar uchun metodik tavsiyalar yetkazib berish haqida so'z borganda, bu tavsiyalar bilan birga mahallalarda onalar uchun ham alohida sayyor kurslar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sababi, bola tarbiyasida onalar alohida o'rin egallaydi. Ko'pchilik onalar nogironligi bo'lgan bolani parvarish qilishda yetarlicha ko'nikmaga ega emas. Ular bolaning xizmatini qilishadi, lekin ko'p hollarda tarbiya masalasida oqsash aloqmatlari ko'zga tashlanadi. Yuqorida aytganimizdek, 13 mingdan ortiq bola uy sharoitida ta'lim oladi. Bunday vaziyatda ta'lim olish oilaviy sharoitga uzviy bog'liq. Sayyor kurslar tashkil etilsa va bola tarbiyasida e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan oila vakillariga tushunchalar berilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish – ularni harakatga keltiruvchi, maqsad sari boshlovchi kuchdir.

Shunday ekan, nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar, ya'ni murakkab pedagogik tizim komponenti bo'lgan jarayonlarni camarali boshqarish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda tashkil etilajak jarayonlarni oldindan loyihalashtirish, bunda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu asosda nogiron farzandi mavjud ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'inlari mutasaddilari (rais, rais o'rinbosarlari, mahalla xotin-qizlar faollari, oqila ayollar va b.q.) ning sohaviy malakasini oshirish talab etiladi. Afsus shu kunga qadar mahallalarda nogironi bor ota-onalar, mahalla mutasaddilari nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish borasida yetarlicha psixologik, pedagogik, tibbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega emas. Shuning uchun ular bilan sayyor, masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish davr talabidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asosanib, biz nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni murakkab, ko'p darajali ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy psixologik tizim sifatida izohlashda quyidagi bir qator xususiyatlarni inobatga olmoq lozim: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy maqsadlilik, nogironlarning qiziqishlari bo'yicha tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarni subyekt tomonidan qabul qilinishi.

Tashkil etilayotgan masofaviy malaka oshirishning ahamiyati shundaki, bunda ota-onalar va mahalla mutasaddilari, nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish bo'yicha ularning qiziqishi va yangiliklarga bo'lgan munosabatlarini obyektiv baholash imkoniyati tug'iladi, pedagogik jarayonda o'zaro munosabatlarning o'zgarishi, keskinlashuv yoki muvofiqlashuv vujudga keladi va o'z navbatida mazkur jarayonga mos keluvchi loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishda, eng avvalo, ko'zlangan maqsadlarga erishishda mahallalarning istiqbol maqsadi va imkoniyatlarini nogironligi bo'lgan bolalar manfaati bilan uyg'unlashtirishni hamda mahallaning faoliyatini zamonaviy o'zgarishlarga moslashtirib borish, uzoq muddatli boshqaruv dasturlarini boshqaruv jarayoniga tatbiq etish zarur.

Bu o'z navbatida istiqbolni tadqiq qilish va maqsadlarga erishishda, rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni oldindan tahlil qilish, rivojlantiruvchi bunyodkor g'oyalar va ularni amalga oshirish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar talab qiladi.

Jumladan, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish masofaviy malaka oshirish jarayonlarida amalga oshiriladi.

Demak, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish jarayonlari – ota-onalar va mahalla mutasaddilarining ijtimoiy soha bo'yicha yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvlarni tashkil etish orqali tizimli rivojlantirib borish qisqa muddatli masofali o'quv kurslari, online malaka oshirish, o'quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq eshiklar kuni, turli xil kechalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy-metodik, metodik materiallar tayyorlash, shuningdek, malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda masofadan malaka oshirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarini masofaviy malaka oshirishini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad – oilalarida nogironligi bo'lgan farzandlar ota-onasiga ijtimoiy ko'mak berish ishlari samaradorligini ta'minlash, masofaviy malaka oshirish ta'lim, qisqa muddatli sayyor malaka oshirish jarayonlarini tizimli tashkil etish, rivojlantirish, nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasida namuna ko'rsatgan va barchaga o'rnak bo'lgan oilalar tajribasini ommalashtirishdan iborat.

Tadqiqotni amalga oshirish orqali mahallalarda nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi, ularning malakacini uzluksiz oshirib borish, mustaqil ta'lim, qisqa muddatli sayyor malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish asosida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining sifat va samaradorligini ta'minlash hamda muvofiqlashtirishga erishiladi.

Shuningdek, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlash yo'nalishlari belgilanadi va muvofiqlashtirib boriladi.

Malaka oshirish jarayonlarini amalga oshirishning "Kaskad" mexanizmi joriy etiladi, monitoringi yo'lga qo'yiladi, samaradorligini tahlil qilish asosida mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bajarilishi nazorat qilinadi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarining malakasini oshirib borish bo'yicha hududlar kesimida dolzarb muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

"Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi mustahkamlanadi, ota-onalarning nogironligi bo'lgan farzandlari tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati oshishiga erishiladi va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashiladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila –mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi (hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzurida "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarida nogironligi bo'lgan farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish masalasini tizimli muhokama

etib borish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Xususan, quyidagilar "Oila –mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining funksional vazifalariga kirishi zarur:

- nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bo'yicha taqdim etilgan strategik rejalari asosida "Ota-onalar universiteti" faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- ota-onalar va mahalla mutasaddilarining malakasini oshirish jarayonlarini mahallalar amaliyoti natijalaridan kelib chiqib, tashkil etish;
- tizimli monitoring asosida malaka oshirish davri va undan keyingi faoliyati o'rtasida qayta aloqani ta'minlash;
- malaka oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;
- doimiy harakatdagi o'quv-seminarlarini tashkil etish, natijaviyligi bo'yicha jamoat Kengashiga muntazam ma'lumotlar taqdim etib borish;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish;
- samarali faoliyat ko'rsatayotgan mahallalar ish tajribalarini ommalashtirish ishlari tashkil etish;
- elektron axborot ta'lim resurslari, yangi ilmiy-metodik, metodik qo'llanmalardan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish;
- bu borada ijobiy natijaga erishayotgan ilg'or tajriba va kasbiy mahorati yuqori bo'lgan mahallalar tajribasini ommalashtirish.

Nogironligi bo'lgan farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish, ularning maqsadli ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda elektron o'quv uslubiy majmualarni yaratish, "Kaskad" mexanizmini yo'lga qo'yish va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Bizningcha, nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining egallagan bilim va ko'nikmalari quyidagilar: shaxsiy rivojlanishga intilish, kreativlik; innovatsiyalarga tayyorlik va motivatsiya; mahallalar tizimini zamonaviylashtirish, boshqaruvga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyat.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda 4 asosiy yo'nalishda faoliyat olib boriladi. Bunda ota-onalar (oilalarning o'ziga xos xususiyatlari va ota-onalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda) va mahalla mutasaddilarining malakasini oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy mahalla raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatida kasbiy tayyorgarlik, ya'ni uning professionalligi, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, muntazam ravishda o'zining kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirib borish, fan va texnika yutuqlari, zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini o'zlashtirish uchun ularning malakasini masofaviy oshirish kurslarining tashkil etish muhim masala hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni taklif etish orqali mazkur yo'nalishdagi irodaviy xatti-harakatlarini ta'minlovchi acoclarni to'rtta asosiy guruhga ajratish muhim hisoblanadi:

birinchidan, bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllanishi va rivojlanib borishi natijasida vujudga keladigan, hurmat-e'tibor, hokimiyat, vakolat va mavqe bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan shaxsiy ehtiyojlar;

ikkinchidan, rivojlanib borayotgan zamonaviy mahallaning samarali rivojlanishiga mos ravishda o'zini o'zi boshqarish, o'z faoliyatini o'zi tomonidan tahlil qilish va o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishga intilish;

uchinchidan, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishi asosida zamonaviy faoliyatning ahamiyati va natijaviyligini anglash;

to'rtinchidan, mahalla mutasaddilarining tabiiy ravishda belgilanayotgan zamonaviy talablarning mazmun va mohiyatini tushunish hamda mantiqan zaruriyatini qabul qilish.

Yuqoridagilarga acoclanib bilim, ko'nikma va malakaga ega ota-onalar va mahalla mutasaddilari deb quyidagilarga asoslanib aytish mumkin:

– bilimlar, izlanish va fikrlash faoliyatlari, ijod jarayoni mahsuli sifatida turli xil shakllarda tizimli hamda umumlashtirilgan holda beriladi;

– mahalla mutasaddisi “boshqaruvchi”, “trener”, “hamkor” sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni hamkorlik qilish, yordam berish, motivasiya berish, nogironligi bo'lgan oilalarni shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan;

– faol hamkorlik ishlarini tashkil qilish, qo'llab-quvvatlash va o'zaro mas'uliyatlilik muhitini yaratishga yo'naltirilgan;

– ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqotning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

– harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab qo'yilgan namunaciga mosligini baholashdan voz kechish.

Yuqorida canab o'tilgan faoliyatlar mahalla tizimi ichida kechadi, lekin bu tizim faoliyatini samarali bo'lishi uchun uni o'rab turgan muhit, ya'ni ijtimoiy-madaniy muhit talab darajasida bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'RQ-641-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 39-sonli bayoni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5270-son farmoni.

3. 2021-yil 4-oktyabrdagi “Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

4. Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlar tizimini qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-87-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasmi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

6. Turgunov Sobithon., Umaraliyeva Muhayyo. The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach// Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics. –2016. – №2. – P.119-125.(DOI:10.14706/JFLTAL163212).

7. Turgunov S.T. va boshq. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. O'quv qo'llanma.– Toshkent: Sano-standart, 2012.100-b.

8. Umaraliyeva M.A. Organizational-Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers //Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics.2015. – R. 187.